

**LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR”
ROMANIDA AYOLLAR PORTRETI****Ismatova Iroda Qurbonmurod qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

irodaismatova95@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida yaratilgan ayol obrazlari badiiy tahlil qilinadi. Asarda tasvirlangan Zumrad, Maysara, Toshbib, Lolaxon kelin kabi personajlar orqali muallif o‘zbek ayollarining samimiyligi, mehnatsevarligi, sho‘xligi va matonatini chuqur ochib beradi. Ayollarning tashqi ko‘rinishi, ichki kechinmalari, oiladagi va jamiyatdagi o‘rni xalqona uslubda, jonli va hayotga yaqin tasvirlar orqali gavdalanadi. Maqolada roman voqealari fonida ayollar portretining ijtimoiy, estetik va ruhiy qirralari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ayol, xalqona, samimiyl, portret, milliy ruh

Annotation: This article analyzes the female images created in Luqman Borikhon's novel "People in the Heat". Through characters such as Zumrad, Maysara, Toshbib, and Lolaxon Kelin, the author deeply reveals the sincerity, hard work, cheerfulness, and fortitude of Uzbek women. The appearance, inner feelings, and role of women in the family and society are embodied in a folk style, through vivid and lifelike images. The article highlights the social, aesthetic, and spiritual aspects of the portrait of women against the backdrop of the events of the novel.

Keywords: woman, folk, sincerity, portrait, national spirit

Аннотация: В статье анализируются женские образы, созданные в романе Лукмана Борихона «Люди в тепле». Через таких персонажей, как Зумрад, Майсара, Тошбиби, Лолахон Келин, автор глубоко раскрывает искренность, трудолюбие, жизнерадостность и стойкость узбекских женщин. Внешний вид, внутренние переживания, роль женщины в семье и обществе воплощены в народном стиле, через яркие и жизненные образы. В статье освещаются социальные, эстетические и духовные аспекты портрета женщины на фоне событий романа.

Ключевые слова: женщина, народ, искренность, портрет, национальный дух

“Men Luqmonni, hali o‘zini tanimasimdan burun tanirdim. Uning, nechanchi yillar, bilmayman, «Yosh kuch» jurnalida tankchilar haqidagi hikoyasi chop etilgan. Keyin «Yoshlik»da yana bir hikoyasi bosildi. Men ham nimadir qoralab, gazet-jurnallarga tinimsiz yuborib, rad javoblarini eshitaverib, diydam qotgan boshlovchi yozuvchi sifatida mazkur nashrlarda chiqish nimaligini yaxshi bilardim:”[4] – deb yozadi, xabar.uzda Ismoil Shomurodov. Ikkala do‘st suhbatida Ismoil Shomurodov Luqmon Bo‘rixonni va uning ijodini alohida eslab o‘tadi va uning har bir asarlarini to‘lqinlanib gapiradi. Shunda ijodkor Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanini alohida yodga oladi. “Jaziramadagi odamlar” haqida alohida to‘xtalmasam bo‘lmaydi, deya aytib o‘tgan yozuvchi. “Bu nafaqat Luqmon Bo‘rixonning, balki XXI asr o‘zbek adabiyotining eng asosiy va muhim romani. Hatto, aytishi mumkin, XXI asr o‘zbek romanchiligi «Jaziramadagi odamlar»dan boshlanadi (Luqmon o‘rtog‘im bo‘lgani uchun aytmayapman buni, haqiqat shu!) O‘qimaganlar bo‘lsa aytay, asar evrilishlar haqida. Bolaning o‘smirga aylanish jarayoni, davming o‘zgarishi, qadriyatlarning o‘zgarishi, hissiyotlar, tuyg‘ ularning o‘zgarishi xususida. [4] Asarda yana ko‘zga tashlanadigan va boshqa ijodkorlamikida takrorlanmaydigan jihatlaridan biri bu - asarda ayollarning tasviri hisoblanadi. Bu tasvirlay jonli, bejirim, o‘quvchi asarli mutolaa qilganida asar qahramonlari ko‘z oldiga namoyon bo‘ladigan jihatdan o‘ta pishiq yaratilgan. Ijodkor har bir ayol obrazini yaratayotganda uning mahalliy qadriyatlari va kelib chiqishiga qarab yaratadi. Shuning uchun ham qishloq ayollari tasviri mahalliy hududga xos bo‘lgan bo‘yoqlarda yaratiladi va shunga qarama – qarshi tarzda shaharlik ayollar tashqi ko‘rinishini ham shahar muhitiga qarab aks ettirgan. Masalan, Chinor Movliyevning ayoli Maysara yanga haqiqiy qishloqning chapani ayoli sifatida tasvirlanadi. Uning baquvvaq gavdasi, salobati, gap-so‘zlaridan bu tasvimi tushunib olishimiz mumkin. Aksincha, shahardan kelin bo‘lib kelgan Lolaxonning oyisi, uning qarindosh – urug‘larida shaharliklarga xos bo‘yoqlar bor. Yozuvchi, Luqmon Bo‘rixon ayollarni tasvirini yaratishda o‘zining qishlog‘idagi ayollardan ilhomlanganini eslab o‘tarkan, sinfdoshlaridan biri Luqmonning “Jaziramadagi odamlar” romanidagi qahramonlar bizning qishloq kishilari degani bu gaplarimizni isboti hisoblanadi. Qishloq ayollariga xos so‘zamonlik, gap-so‘zga chechanlik, topqirlik kabi bir nechta fazilatlar bu tasvirlarni chetlab o‘tmagan.

“Bir otim bor, ajabgina

Dumlari gachakkina

Hali kelsa, ko‘rasiz

Kula-kula o‘lasiz

(Toshbibi chechaning javobi (no)ma’lum topishmoqlardan” [2:3]

Biz aytib o'tgan so'zamonlik shu obrazninng tilidan olingan ba'zi bir topishmoqlar, maqollar orqali yuzga chiqqanligini aytsak bo'ladi. Yozuvchi bu obraz portretinini shunday ta'riflaydi. "Toshbibi checha – allaqanday bo'shang, xayolchan ayol. Lekin biz bolalar uni juda yoqtirar edik. U har xil ertak-cho'pchaklar aytib o'g'zimizni ochirib tashlaydi, goho turlik topishmog'-u jumboqlar bilan boshimizni xo'p qotiradi.

– Bu ayol – ayolmas, sirli kitob, - deb hazil qiladi otam." [2:19]

Bu ayol asardagi o'ziga xosligi, og'ir tabiatligi, eng qiziqarlisi esa har qanday vaziyatda ham o'zini tutishi har bir kitobxon qalbidan joy oladi.

Yozuvchi, besh qo'l baravar bo'lmaganidek og'ir vazmin tabiatli obrazlar bilan birgalikda sho'x-shaddod portretlar tasvirini ham yaratgan. "Zumrad yanga – sho'x-shaddod, istarasi issiq, xushro'ygina ayol edi." [2:9] Asarda Zumrad yanga obrazi orqali muallif ayol xarakterining yorqin, hayotbaxsh, quvnoq va xalqona bir namunasi sifatida ko'rsatadi. U – sho'x-shaddod, ya'ni har qanday holatda o'zini yo'qotmaydigan, o'ziga xos hazilkashlik va quvnoqlikka ega ayoldir. Shuningdek, "istarasi issiq" ifodasi uning odamga yoqimli, samimiy inson ekanidan dalolat beradi. Zumrad yanga obrazi orqali muallif xalq orasida uchraydigan, samimiy, o'z gapini aytadigan, ammo qalbi pok ayollar obrazini yaratgan. U erkaklar dunyosida o'z o'rniga ega, uyalmasdan gapiradigan, o'z fikrini ochiq bildiradigan obraz bo'lishi mumkin.

Maysara yanga obrazi: "Maysara yanga, asli, go'zal ayol bo'lgan! Uning uzunchoq burni, yirik-yirik ko'zlari, qiyalatib qo'ndirilgan durrachasi ostidan bulutdek ko'pirib toshib turadigan jingalak sochlari cho'ng qaddi-bastiga xo'p yarashadi. Tayin gapki, ne-ne yigitlar "Maysara" otini eshitgandayoq shirin-shirin tamshanganlar" [2:11] Yozuvchi ushbu obrazni ham o'ziga xos uslub bilan yaratgan. Asardagi Maysara yanga obrazi — go'zallik, nafislik va ayollikka xos joziba timsolidir. U – erkaklar e'tiborini tortadigan, o'z davrida mashhur bo'lgan, ayol go'zalligini ifodalovchi yorqin obrazlardan biridir. Bunday obrazlar o'z davri jamiyatida ayollarning roli, qadr-qimmatini, jamiyatdagi o'rni haqida fikr yuritishga undaydi.

Ijodkor ushbu asarning asosiy yuragi hisoblanga Lolaxon obrazini portretini shunday tariflaydi. "Oppoq, to'lishgan yuzlari zulukdek qoshlari ostidagi qop-qora ko'zlari, qip-qizil lablari to'la tabassum! Qoramatiga yashariq atlas ko'ylak lozimi, boshidagi qizg'ish durrachasi uning chinakam shaharcha did-farosatidan darak berib turar edi." [2:75] Ushbu obrazni tahlil qilsak: "Zulukdek qoshlari ostidagi qop-qora ko'zlari" – bu obraz yorqin, ifodali nigohli ayolni ko'z oldimizga keltiradi. Zulukdek qora qoshlar – tabiiy go'zallik belgisi, qop-qora ko'zlar – chuqur, jozibali nigoh ramzi. Bu ayol obrazi – go'zallik, nafislik, samimiyat va shaharlik madaniyati bilan uyg'unlashgan timsollar sirasiga kiradi. Uning har bir jihati – yuz ifodasidan tortib, kiyinish uslubigacha – estetik zavq, ayollik jozibasi va orasta hayot tarzini ifodalaydi. Bu kabi obrazlar asarda nafaqat tashqi go'zallik, balki ichki

did, madaniyat va o'zlikni anglash belgilarini ko'rsatishda xizmat qiladi. Bunday tasvirlarni yaratish albatta yozuvchining qalami o'tkirligidan dalolat beradi. Muallif har bir obraz yaratayotganda uning kichik detallariga ham ahamiyat berishi, obrazlarni jonli yaratishi asarni o'qishli qilishiga asosiy manba bo'ladi. Shu asnoda biz Lolaxonni sevgi ramzi ham deya olamiz. Yuz ko'zlaridan sevgi tasvirlari ufurib turgan Lolaxonni ko'rgan qishloq qizlarini,

“Yanga, muhabbat nima?! Baxt-chi?...”

“Yangajon, bir ko'rishda sevib qolish mumkinmi”

“O'z sevgingiz haqida aytib bering, iltimos...”[2:99] deya so'rayotgan har bir savollariga mehr bilan javob beradi.

Nuri obrazi: “Nuri – laylak uyasidek boshida oq tivit ro'mol, ustida qunduz yoqali palto, oyog'ida qo'nji naq tizzasigacha yetadigan toza charm etik, qaddi-basti kelishgangina juvon ekan!”[2:125] Ushbu obraz orqali yozuvchi shahar ayollariga xos portret yaratadi. Uning tashqi ko'rinishini shaharliklarga xos manzara bilan tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, Luqmon Bo'rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida ayollar portreti o'ziga xos badiiy mahorat bilan chizilgan bo'lib, ular turli xarakter, taqdir va ruhiy kechinmalarining yorqin timsoli sifatida gavdalanadi. Muallif ayol obrazlari orqali nafaqat oila va jamiyatdagi o'rnini, balki ularning ichki kuchi, sabr-bardoshi, mehr-oqibati va hayotga bo'lgan irodasini chuqur aks ettiradi. Har bir ayol — u istarali, sho'x, mehribon, go'zal yoki qat'iyatli bo'lishidan qat'i nazar — bu roman voqealari markazida jonli, tabiiy va samimiy obraz sifatida namoyon bo'ladi. Ayollar portreti orqali muallif milliy ruh, qadriyat va hayot haqiqatini chuqur ochishga muvaffaq bo'lgan. Juda ko'plab ijodkorlar o'z asarlarida ayollar tasvirini o'zining uslubiga xos qilib jonli tarzda yaratadi. Masalan, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasidagi ayollar obrazida ham matonatli ayollarga tasvirlarni ko'rishimiz mumkin. Said Ahmadning asaridagi Dildor, Zebi, Lutfinisa kabi bir necha obrazlarni, biz “Jaziramadagi odamlar” romanidagi Maysara yanga, Zumrad yanga Lolaxon kelin kabi obrazlariga solishtirsak bo'ladi. Ikki ijodkor ham o'zbek ayollarini matonatini, mehnatkash, samimiyligini tarannum etadi. Said Ahmad ham, Luqmon Bo'rixon ham o'zbek adabiyotida ayol obrazlarini chuqur psixologik va ijtimoiy kontekstdan kelib chiqib tasvirlagan yirik yozuvchilardir. Ularning asarlarida ayollar — oddiy hayot kechirayotgan bo'lsa-da, yelkasida og'ir yuk, qalbida sabr, bag'rida mehr va jamiyatda katta o'rin tutadigan timsollardir. Said Ahmadning Dildor, Zebi, Lutfinisa kabi obrazlari — oila tinchligi uchun kurashuvchi, erkaklar yonida emas, ba'zida ularning o'rnida turuvchi, oqila, sezgir va mehribon ayollardir. Ular hayotning sinovlariga qarshi turishda matonat, sabr-toqat, va aql bilan harakat qiladilar. Dildor kabi obrazlar ayolning jamiyatdagi o'rnini, ichki dunyosidagi murakkablikni ochib beradi. “Jaziramadagi odamlar” romanidagi Maysara

yanga, Zumrad yanga, Lolaxon kelin kabi obrazlar esa ko‘proq xalq orasidan chiqqan, hayotiy, qishloqning og‘ir iqlimi va ijtimoiy muhitida toblangan, jo‘shqin, sho‘x, ammo mehrli va halol ayollar sifatida tasvirlanadi. Ular muallifning xalqona, yumoristik va hayotga yaqin uslubi orqali hayotga chizib qo‘yilgandek aniq va jonli gavdalanadi. Bu obrazlar harakatda, ishda, oilaviy mas‘uliyatda ko‘rinadi — ba’zida erlik vazifani ham o‘z zimmasiga oladi. Said Ahmad va Luqmon Bo‘rixon yaratgan ayol obrazlari o‘zbek ayolining turli qirralarini – sabrli, fidoyi, aqli, bag‘rikeng, ba’zan esa sho‘x va hayotga yaqin timsolini ko‘rsatadi. Har ikki yozuvchi o‘z uslubiga xos tarzda, ayolni jamiyatning tayanchi, oila negizi va ma’naviy tayanch sifatida talqin qiladi. Ular asarlarida ayollar orqali xalq ruhiyati, tarixiy sharoit, va ma’naviy qadriyatlarni chuqur aks ettirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Y.Turdiyeva “ Badiiy uslub individualligi Luqmon Bo‘rixonning “ Jaziramadagi odamlar” romani asosida.” maqola. “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya”
2. L. Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” Oltin qalam nashriyoti. Toshkent,2024.
3. .Y.Turdiyeva. Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida badiiy uslub individualligi mavzusidagi Dissertatsiyasidan. Toshkent.2025
4. <https://xabar.uz/ofhl>